# Xalq so‘zi

O‘zbekiston — kelajagi buyuk davlat

2023-YIL — INSONGA E’TIBOR VA SIFATLI TA’LIM YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan ● WWW.XS.UZ ● E-mail: Info@xs.uz ● 2023-yil 10-oktabr, № 214 (8557) Seshanba

Saytimizga o‘tish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.


# MUZAFFAR SPORTCHILARIMIZ EL-U YURTIMIZ ARDOG‘IDA



*Xitoyning Xanchjou shahrida o‘tkazilgan XIX Osiyo o‘yinlarida muvaffaqiyatli ishtirok etgan sportchilarimiz “Toshkent” xalqaro aeroportida katta tantana bilan kutib olindi.*

*To‘rt yillikning nufuzli musobaqasida 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza, jami 71 medalga sazovor bo‘lgan O‘zbekiston yoshlari mahorat, qat’iyat hamda shijoat bobida hech kimdan kam emasliklarini yana bir karra isbotlab, dunyo ahlining hayrat-u havasini uyg‘otdi.*

*Osiyo qit’asining 45 ta davlatidan 11 ming nafar sportchi ishtirok etgan musobaqalarda g‘ayrat-shijoatli o‘g‘il-qizlarimiz Xitoy Taypeyi, Bahrayn, Shimoliy Koreya, Gonkong, Eron, Indoneziya, Qozog‘iston, Qatar, Singapur, Malayziya, Vyetnam, Kuvayt vakillarini ortda qoldirib, umumjamoa hisobida Xitoy Xalq Respublikasi, Yaponiya, Janubiy Koreya va Hindistondan keyin faxrli beshinchi o‘rinni egalladi. Qolaversa, sportchilarimiz XIX Osiyo o‘yinlarida erishgan muvaffaqiyati bilan shu paytgacha o‘tkazilgan qit’a o‘yinlaridagi qo‘lga kiritgan natijalarini ham yangiladi.*

## Iftixor

9-oktabr kuni Islom Karimov nomidagi “Toshkent” xalqaro aeroportida muzaffar sportchilarimizni kutib olish, ulkan g‘alaba bilan muborakbod etish uchun davlat va jamoat tashkilotlari vakillari, Osiyo o‘yinlari sovrindorlarining ota-onalari, yaqinlari, do‘stlari, qolaversa, respublikamizning turli viloyatlaridan kelgan keksa-yu yosh jam bo‘ldi.

“Uzbekistan Airways” AJning sportchilarimizni bag‘riga olgan maxsus avialayneri Toshkentga yetib kelgani e’lon qilinadi. Osiyo o‘yinlarida O‘zbekiston nomini yanada ulug‘lashga hissa qo‘shgan atletlarimiz davlatimiz bayrog‘ini baland ko‘targan holda ona Vatan zaminiga qadam qo‘yadi. Karnay-surnay sadolari yangradi. Ularga gullar taqdim etildi.

XIX Osiyo o‘yinlarida Vatanimiz sharafini ulug‘lagan sport delegatsiyasini tantanali kutib olish marosimida O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri A. Aripov ishtirok etdi va Prezidentimiz tabrigini o‘qib eshittirdi.

Shuningdek, marosimda qatnashgan hukumat vakillari, vazirlik, tashkilot mutasaddilari, keng jamoatchilik vakillari, shoirlar, san’atkorlar Osiyo o‘yinlarining tafsilotlari, sportchilarimiz erishgan g‘alabalar xususida to‘lqinlanib so‘zladi. O‘zbekiston xalq shoiri Mahmud Toir g‘olib sportchilarimizga bag‘ishlangan she’rini o‘qib eshittirdi.

Ta’kidlanganidek, bugun mamlakatimizda o‘g‘il-qizlarimizning jahon andozalariga mos sharoitlarda bilim olishi, jismoniy hamda ma’naviy jihatdan yetuk insonlar bo‘lib ulg‘ayishini ta’minlash, qobiliyat va iqtidorini yuzaga chiqarish, qalbida ona yurtga sadoqat hamda fidoyilik tuyg‘ularini shakllantirish borasida hayotga keng ko‘lamli chora-tadbirlar tatbiq etilayotir. Xususan, 2021-yil 5-noyabrda Prezidentimizning “2024-yil Parij shahrida (Fransiya) bo‘lib o‘tadigan XXXIII yozgi Olimpiya va XVII Paralimpiya o‘yinlariga O‘zbekiston sportchilarini kompleks tayyorlash to‘g‘risida”gi qarori qabul qilindi. Ushbu hujjat ijrosi doirasida atletlarimizning nufuzli musobaqaga munosib hozirlik ko‘rishlari uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berildi.

Bunday yuksak e’tibor va g‘amxo‘rlik samarasi Osiyo o‘yinlarida qo‘lga kiritilgan natijalarda o‘z ifodasini topdi.

Tahlillar, raqamlar juda ko‘p narsaga oydinlik kiritadi. Qilingan mehnat, chekilgan zahmatlarning ahamiyatini ifodalaydi. Biz Xanchjouda o‘tkazilgan musobaqa yakunlari bo‘yicha ana shunday qiyoslarni bir necha bor keltirdik. Biroq mana shunday quvonchli damlarda ayrim dalillarga yana bir karra to‘xtalib o‘tsak, foydadan xoli bo‘lmas. Ma’lumki, bu galgi Osiyo o‘yinlarida 45 davlatdan 11 ming nafar sportchi qatnashgan bo‘lsa, 27 mamlakat vakillariga oltin medallarni qo‘lga kiritish nasib etdi. Qolaversa, musobaqa dasturidan o‘rin olgan ko‘plab sport turlari bo‘yicha kelgusi yili Parijda o‘tkaziladigan navbatdagi yozgi Olimpiada o‘yinlari yo‘llanmalari uchun ham kurash bordi. Ayni shu jihat ham har bir bellashuvni o‘ta murosasiz kurashlar ostida o‘tishini ta’minladi. Ana shunday kuchli raqobat kuzatilgan bahslarda vakillarimiz bor mahorat va imkoniyatini ishga solib, yuksak o‘rinlarni qo‘lga kiritgani har bir yurtdoshimizga cheksiz faxr va iftixor tuyg‘ularini baxsh etdi.

➡ 4

## Uchrashuv

# ALOQALARNI YANADA MUSTAHKAMLASHGA ARATILGAN TAKLIFLAR MUHOKAMA QILINDI

*Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva mamlakatimizda amaliy tashrif bilan bo‘lib turgan Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bolalar jamg‘armasi (YUNISEF)ning Yevropa va Markaziy Osiyo bo‘yicha mintaqaviy direktori Regina De Dominitsis bilan uchrashdi.*



Uchrashuvda O‘zbekiston va YUNISEF o‘rtasidagi hamkorlikning muhim jihatlari ko‘rib chiqildi, aloqalarni yanada mustahkamlashga qaratilgan takliflar muhokama qilindi.

Keyingi yillarda O‘zbekistonning BMT institutlari, xususan, YUNISEF bilan munosabatlari faollashgani, mamlakatimizda qator yirik qo‘shma tadbir va loyihalar amalga oshirilayotgani, bolalarni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, jumladan, ularning sifatli ta’lim-tarbiya olishi uchun yaratilayotgan shart-sharoit samarasini ta’minlashda tuzilma o‘rni alohida ekani qayd etildi.

Muloqot davomida perinatal salomatlik, bolalar o‘sishi hamda rivojlanishi holatini o‘rganishga oid 2024-2025-yillarda Oziqlanish bo‘yicha ikkinchi milliy tadqiqotni o‘tkazish, bolalarda irsiy kasalliklarning oldini olish va davolash samaradorligini oshirish, shuningdek, bolalarni ijtimoiy himoya qilish tizimini takomillashtirish borasida amaliy hamkorlikni kuchaytirish yuzasidan takliflar bildirildi.

Ta’lim, inklyuziv ta’lim va sog‘liqni saqlash tizimlarining huquqiy-institutsional asoslarini takomillashtirish borasida ham fikr almashildi.

YUNISEFning O‘zbekistondagi vakolatxonasi hamkorligida multiindikator klaster kuzatuvlari (MICS)ni o‘tkazish qamrovini yanada kengaytirish hamda ushbu tadqiqotga mutasaddi davlat tashkilotlari va fuqarolik jamiyati institutlarini yanada keng jalb qilish yuzasidan sa’y-harakatlarni birlashtirishga kelishildi. Ayni chog‘da BMTning Bola huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini ijro etish bo‘yicha milliy harakatlar rejasini yaqin fursatda qabul qilish zaruratiga ham alohida e’tibor qaratildi.

Uchrashuv yakunida O‘zbekistonning YUNISEF bilan konstruktiv hamda samarali hamkorligini amaliy loyihalar bilan mustahkamlashga kelishib olindi.

**“Xalq so‘zi”.**

# BIRLASHTIRUVCHI KUCH

**O‘zbekiston Prezidentining qo‘shni davlatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotgan tashabbuslari tufayli Markaziy Osiyo “beshligi” jahon siyosatining mustaqil subyekti maqomiga ega bo‘lmoqda.**

*Ko‘plab mamlakatlarning tadqiqotchi va siyosatshunoslari mintaqaviy integratsiyaning samarali formulasini ishlab chiqish ustida bir necha o‘n yillar davomida bosh qotirib kelishmoqda. Ular o‘rganayotgan obyektning asosiy murakkabligi shundaki, siyosiy va iqtisodiy voqeliklar hamisha o‘zgarib turadi. So‘nggi bir necha yilda geosiyosiy vaziyatning o‘zgaruvchanlik kasb etgani bu jarayonlarni yana ham tezlashtirdi. Demak, olimlarning yillar davomida to‘plagan nazariy bilimlari va amaliy tajribasi birdaniga o‘z dolzarbligini yo‘qotib, mehnatlari chippakka chiqishi ham hech gap emas.*



## Tahlil

Mazkur yo‘nalishda katta yutuqqa erishgan tadqiqotchilardan biri vengriyalik iqtisodchi Bela Balashsha hisoblanadi. U integratsiyaning oddiy shakldan murakkabiga qarab evolyutsion tarzda rivojlanishi haqidagi ta’limotni ishlab chiqdi. Uning sa’y-harakatlari natijasi olimlar, ayniqsa, dunyodagi eng yirik integratsiyaviy birlashma — Yevropa Ittifoqining tuzilmasi va shakllanishini o‘rganadigan tadqiqotchilar uchun qulay vosita bo‘ldi. Ya’ni bu olimlar mamlakatlar o‘rtasidagi savdo, bojxona tartib-taomillari, umumiy bozorni shakllantirish va boshqa mexanizmlarni soddalashtirish orqali ularning bir-biriga yaqinlashuvi jarayonlarini bashorat qila oladi.

Xalqaro munosabatlar sohasidagi boshqa tadqiqotchilar singari B. Balashsha uchun ham endi vujudga kelayotgan Yevroittifoq ancha vaqt mobaynida tadqiqotning asosiy obyekti bo‘lib xizmat qildi. Lekin endi bizning davrimizga kelib, mutaxassislarning diqqatini jalb etayotgan fenomen aynan Markaziy Osiyo bo‘ldi. Ekspertlarning yakdil fikricha, ushbu mintaqadagi yaqinlashuv jarayonlari O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning sa’y-harakatlari bilan boshlandi. Bu tashabbuslar tarixiy va zamonaviy reallikni aks ettirgani uchun ham mintaqaviy “beshlik”ning boshqa mamlakatlari tomonidan qizg‘in qo‘llab-quvvatlandi.

➡ 3

# IJTIMOIY SHERIKLIK — MUNOSIB MEHNAT GAROVI

*O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan 7-oktabr — Butunjahon munosib mehnat kuni munosabati bilan “Ijtimoiy sheriklik — munosib mehnat garovidir!” mavzuida videokonferensaloqa formatida seminar o‘tkazildi.*

## Seminar

Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi tashabbusi bilan dunyo mamlakatlarida nishonlanadigan mazkur tadbirda Oliy Majlis Senati vakillari va Qonunchilik palatasi deputatlari, Xalqaro mehnat tashkiloti hamda Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi ekspertlari, bir qator manfaatdor vazirlik va idoralar, tarmoq kasaba uyushmalari Respublika kengashlari hamda O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasining hududiy kengashlari mutasaddilari, paxtachilikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha o‘tkazilayotgan milliy monitoringning hududiy ishchi guruhlari a’zolari qatnashdi.

Tadbirda ta’kidlanganidek, so‘nggi yillarda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tashabbusi bilan turli sohalarda bo‘lganidek, ijtimoiy-mehnat munosabatlari yo‘nalishida ham keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Bunga yorqin misol sifatida 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan referendumda umumxalq ovoz berish yo‘li bilan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi hamda fuqarolarning mehnat huquqlarini xalqaro standartlarga mos himoyalashga qaratilgan yangi Mehnat kodeksi qabul qilinganini keltirish mumkin.

Mazkur qonun hujjatlarida inson qadri hamda huquqlari yanada kengroq qamrab olinib, mustahkamlandi. Xususan, yangi Mehnat kodeksida ijtimoiy sheriklik tamoyillariga ko‘ra ko‘plab masalalar amaliyotga joriy etilishidan oldin Ijtimoiy-mehnat masalalari bo‘yicha uch tomonlama respublika komissiyasi bilan kelishilgan holda tasdiqlanishi belgilab qo‘yildi.

➡ 4

**OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI:**

# MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR



*Shu yilning 13-14-oktabr kunlari Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universitetining Biokimyo institutida BMT Oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi tashkiloti (FAO)ning O‘zbekistondagi vakolatxonasi bilan hamkorlikda V xalqaro ilmiy-amaliy anjuman o‘tkaziladi.*

## Xalqaro anjuman

Ma’lumki, keyingi yillarda oziq-ovqat xavfsizligi jahon hamjamiyati oldidagi eng dolzarb masalalardan biri sifatida keng quloch ochdi, iqlimning keskin o‘zgarishi natijasida ro‘y berayotgan tabiiy ofatlar, suv taqchilligi, qurg‘oqchilik kabi omillar ta’siri vaziyat yanada murakkablashishiga olib kelmoqda. Natijada jahon bozorida oziq-ovqat mahsulotlari narxining keskin ko‘tarilish tendensiyasi kuzatilmoqda. Bu esa sohani yangi innovatsion tendensiyalar va texnologiyalar hamda ilmiy yutuqlarni qo‘llash orqali yanada rivojlantirishni taqozo etmoqda.

➡ 4

**Xalq deputatlari mahalliy Kengashlarida**

# TA’SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA’MINLAMOQDA

*Shu kunlarda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi Spikeri, uning o‘rinbosarlari, quyi palataning bir guruh deputatlari mahalliy Kengash deputatlari bilan birgalikda joylarda kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holatini o‘rganmoqda, ularning natijalari esa xalq deputatlari tuman, shahar Kengashlari sessiyalarida muhokama qilinayotir. Mazkur sessiyalar haqidagi ma’lumotlar gazetamizda ham batafsil yoritib borilmoqda.*

Sessiyalarda ishtirok etgan mahalliy Kengashlar deputatlari o‘z fikr-mulohazalari bilan o‘rtoqlashdi.

**Ma’ruf OLIMOV, xalq deputatlari G‘ijduvon tumani Kengashi deputati (Buxoro viloyati):**

— Saylovchilar bilan bo‘lgan uchrashuvlar natijasidan kelib chiqib, tuman Kengashi sessiyasi kun tartibiga kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish masalasini kiritdik.

Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda Prezidentimiz tomonidan kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko‘rish, muqobil energiyadan unumli va samarali foydalanish masalalariga alohida e’tibor qaratilayotir. Sohaga mablag‘lar ajratilyapti, joylarda bu ishlarni samarali tashkil etish uchun shart-sharoitlar yaratilmoqda.

Sessiyada sohada qilingan ishlar yuzasidan tuman hokimining hisobotini eshitdik. Bunda, avvalo, kuz-qish mavsumida ijtimoiy tashkilotlarning muammosiz faoliyat olib borishi uchun qanday ishlar qilinayotganligiga e’tibor qaratdik. Tumandagi mas’ul idoralar rahbarlari ham deputatlar savollariga javob berishlariga to‘g‘ri keldi.

➡ 2

## Biz va jahon

# ERON BILAN SAYYOHLIK SOHASIDA HAMKORLIK ISTIQBOLLARI KO'RIB CHIQILDI

*Eronning Ardabil shahrida o'tkazilgan Iqtisodiy hamkorlik tashkiloti (IHT)ga a'zo davlatlar turizm vazirlarining 5-yig'ilishida O'zbekistonning Erondagi elchisi Bahodir Abdullayev boshchiligidagi delegatsiya ishtirok etdi.*

Tadbir yakuni bo'yicha Ardabil deklaratsiyasi qabul qilindi. Ushbu hujjatda 2022-yil 13-dekabr kuni O'zbekiston raisligida o'tkazilgan IHTga a'zo davlatlar turizm vazirlarining 4-yig'ilishi va uning doirasida imzolangan "IHT mintaqasida COVID-19 pandemiyasidan keyin turizm sohasini jadal tiklash, xavfsiz va barqaror rivojlantirish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ijrosining ijobiy natijalari qayd etilgani barobarida mamlakatimizda joylashgan Shahrisabz shahri 2024-yilda IHT turizm poytaxti, deb e'lon qilingani e'tirof etiladi.

Shuningdek, O'zbekiston tomoniga 2023-yilda Samarqand shahrida Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) ning 25-sessiyasiga mezbonlik qilayotgani uchun minnatdorlik bildirildi. Bu, shubhasiz, nafaqat mamlakatimiz, balki butun mintaqa uchun qulay imkoniyat ekanligi qayd etildi.

Tadbir doirasida Ardabil gubernatori Seyid Hamed Ameliy bilan bo'lib o'tgan uchrashuvda shu yil 18-iyun kuni O'zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Tehronga hamda Eron Prezidenti Sayid Ibrohim Raisiyning 2022-yil 14 — 16-sentabr kunlari Samarqandga amalga oshirgan rasmiy tashriflari doirasida o'tkazilgan oliy darajadagi muloqotlarda erishilgan kelishuvlarning ijrosi yuzasidan o'zaro fikr almashildi.

Muloqot chog'ida Ardabil va Shahrisabz o'rtasidagi mushtarak tarixiy aloqalar qayd etilar ekan, ushbu ikki shahar o'rtasida birodarlashuv aloqalarini o'rnatish hamda iqtisodiy, turizm va madaniy aloqalarni rivojlantirish taklifi ilgari surildi. O'zbekiston viloyatlari va Ardabil shahri o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri aviaqatnovlarni amalga oshirish masalasi ham muhokama etildi.

Shuningdek, "Rahan Sazeh Consulting Engineers" osma ko'priklar qurish va "Proheal" dorivor o'simliklar hamda sayyohlik yo'nalishidagi "ALMA Tour & Travel", "Maral Tours", "Ershad Hotel & Hydrotherapy" kabi kompaniyalar rahbarlari hamda Ardabil sayyohlik agentliklari uyushmasi raisi bilan ikki tomonlama uchrashuvlar o'tkazildi.

Uchrashuvlar chog'ida Eronning turizm sohasi vakillari 2023-yil 16 — 20-oktabr kunlari Samarqand shahrida bo'lib o'tajak Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO)ning 25-sessiyasi doirasidagi tadbirlarga, jumladan, investforumga taklif etildi.

**"Dunyo" AA.**
**Tehron**

# "YO'L XARITALARI"DA BELGILANGAN VAZIFALAR QANDAY IJRO QILINMOQDA?

*Kuni kecha Farg'ona viloyatida Oliy Majlis Senati Kengashining sayyor majlisi o'tkazildi. Unda viloyatning tuman va shaharlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish "yo'l xaritalari" doirasida amalga oshirilgan ishlar muhokama qilindi.*

## Senator va hayot

Ta'kidlanganidek, viloyatda joriy yilning o'tgan 9 oyida iqtisodiy o'sishni ta'minlash, tadbirkorlikni rivojlantirish, aholini daromadli mehnat bilan band qilish, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini yaxshilash borasida muayyan ishlar amalga oshirilgan.

Xususan, dastlabki hisob-kitoblarga ko'ra, sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi o'tgan yilning mos davridagiga nisbatan 107,2 foiz, qishloq xo'jaligi mahsulotlari — 104,2, xizmatlar ko'rsatish hajmi 107,5 foizga o'sishi ta'minlangan. Hududiy korxonalar tomonidan 515,4 mln. dollarlik sanoat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari eksport qilinib, bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davridagiga nisbatan 102,3 foizni tashkil etgan. Yil boshidan beri qo'shimcha 200 ta korxona mahsulot eksportiga jalb qilingan.

Xizmat ko'rsatish yo'nalishida 2100 dan ziyod yangi, shu jumladan, maxsus xizmat ko'rsatish ko'chalariga aylantiriladigan markaziy ko'chalarda 103 ta savdo va servis obyekti ochilgan. Investitsiya dasturlari doirasida 328,5 mln. dollar mablag' o'zlashtirilishi hisobiga 805 ta loyiha ishga tushirilgan. Iqtisodiy faollikning oshishi natijasida qariyb 6 mingga yaqin yangi kichik tadbirkorlik subyektlari tashkil etilgan va faoliyat yuritayotgan tadbirkorlik subyektlari soni 34 mingdan oshgan.

Majlisda senatorlar tomonidan aholining ijtimoiy muammolarini hal qilish, ularning bandligini ta'minlash masalasiga ham alohida e'tibor qaratildi.

Jumladan, hududiy bandlik dasturi ijrosi doirasida 530 mingdan ortiq kishilarning doimiy va mavsumiy ishlardagi bandligi ta'minlangan.

Mahallabay ishlash tizimi asosida hokim yordamchilari ko'magida 4,5 mingdan ziyod mikroloyihalar ishlab chiqilgan. Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturi doirasida 34,4 mingdan ziyod loyihalar uchun 623,7 mlrd. so'mlik kredit mablag'lari ajratilgan.

"Ayollar daftari"dagi ijtimoiy himoyaga muhtoj 105,1 ming nafar xotin-qizga amaliy yordam ko'rsatilgan. Ushbu maqsadda "Ayollar daftari" hamda "Saxovat va ko'mak" jamg'armalaridan 62 mlrd. so'm mablag' sarflangan.

Hududning 2023-yilgi ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirish dasturi doirasida jami 121 ta obyektda 539,4 mlrd. so'mlik qurilish-montaj ishlari bajarilgan, shu jumladan, 13 ta maktab, 6 ta maktabgacha ta'lim tashkiloti, 9 ta sog'liqni saqlash va 10 ta yo'l obyektida qurilish-montaj ishlari yakuniga yetkazilgan.

Muhokama jarayonida senatorlar viloyatda amalga oshirilgan ijobiy ishlar bilan birga mavjud kamchilik va muammolarga ham to'xtalib o'tdi.

Xususan, 2023-yil yanvar — avgust oylarida eksport prognoz ko'rsatkichlari bajarilishi Toshloq, Furqat, Rishton va Farg'ona tumanlarida to'liq ta'minlanmagan.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasida ajratilgan resurs mablag'laridan foydalanish darajasi Beshariq, O'zbekiston, Qo'shtepa va Farg'ona tumanlarida viloyat ko'rsatkichidan past darajada qolmoqda.

Oilaviy tadbirkorlikni rivojlantirish dasturlari doirasidagi muammoli kreditlar hajmi yil boshidagiga nisbatan 14,8 foizga oshgan.

Oltiariq, Quva va Toshloq tumanlari hamda Quvasoy shahri mahallalarida sanoat, hunarmandchilik, kasanachilik va chorvachilik yo'nalishlarida mikromarkazlar tashkil qilinmagan.

Kichik sanoat zonalari, yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari hamda yirik ishlab chiqarish loyihalarini tashqi muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlari bilan ta'minlash bo'yicha ayrim obyektlarda sustkashlikka yo'l qo'yilgan. Jumladan, joriy yil may oyida topshirilishi rejalashtirilgan O'zbekiston tumanidagi kichik sanoat zonasi va Yozyovon tumanidagi yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonasida ichimlik suvi tarmog'ini qurish ishlari bor-yo'g'i 30 foizga bajarilgan. Bo'sh turgan binolarga tadbirkorlik subyektlarini jalb qilish ishlari yetarli darajada tashkil etilmagan, auksion savdolariga chiqarilgan davlat aktivlarini sotish ko'rsatkichi ayrim hududlarda juda past.

Majlisda Farg'ona viloyati hududlarini ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturlari o'z vaqtida va sifatli bajarilishini ta'minlash, shu jumladan, imtiyozlar va preferensiyalardan samarali foydalanishga qaratilgan qator takliflar bildirildi. Xalq deputatlari mahalliy Kengashlariga "Yo'l xaritasi"da belgilangan vazifalar ijrosi yuzasidan amalga oshirilayotgan ishlarni o'rganish va sessiyalarda muhokama qilish hamda ijrosini ta'minlashda mas'uliyatsizlikka yo'l qo'ygan mutasaddilarga nisbatan ta'sirchan choralar qo'llash masalasini ko'rib chiqish kabi tavsiyalar berildi.

Majlisda muhokama qilingan masala yuzasidan Senat Kengashining tegishli qarori qabul qilindi.

**"Xalq so'zi".**

# TA'SIRCHAN PARLAMENT NAZORATI ISLOHOTLAR SAMARADORLIGINI TA'MINLAMOQDA

1

Tumanning olis va borish qiyin bo'lgan hududlarini ko'mir va suyultirilgan gaz bilan uzluksiz ta'minlashda uzilishlarga yo'l qo'yilayotgani tanqid ostiga olindi. Shundan kelib chiqib, kuz-qish mavsumini betalafot o'tkazish yuzasidan manzilli tadbirlarni belgilash, ular amalga oshirilishini ta'minlash bo'yicha hokim oldiga alohida masala qo'ydik.

Sessiyaga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazishda Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari yaqindan yordam berdi. Biz bundan minnatdormiz.

**Shahlo RIZOQULOVA,**
**xalq deputatlari Navbahor tumani Kengashi deputati (Navoiy viloyati):**

— Mamlakatimizda erishilayotgan ulkan yutuq va marralar, xalqimiz ong-u tafakkurida ro'y berayotgan o'zgarishlar, yurtdoshlarimizda daxldorlik tuyg'usi kuchayib, fuqarolik pozitsiyasi tobora yuksalib borayotgani Prezidentimiz rahnamoligida amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar samarasidir.

Binobarin, mahalliy Kengashlar deputatlari ham hayot oldimizga qo'yayotgan dolzarb masalalar yechimini qonuniy hal etish bilan bog'liq takliflarni ilgari surishi lozim.

Shu ma'noda, kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish bo'yicha qilinayotgan ishlar mahalliy Kengash deputatlari muhokamasiga olib chiqilgani — bu ijobiy holat. Bu borada tumanimizda ham salmoqli ishlar bajarilgan. 20 ta ijtimoiy soha obyektidagi isitish tizimlari ilk marotaba davlat-xususiy sheriklik asosida tadbirkorlik subyektiga berilgani e'tiborga molik. Va biz, deputatlar bu amaliyotni ma'qulladik.

Shu bilan birga, tuman hokimligi va mutasaddi idoralarning bu tizim bo'yicha mas'uliyati masalasi bilan qiziqdik va ularning fikrlarini oldik.

Umuman, deputatlarning mas'uliyati va faolligi oshayotgani e'tiborga molik.

**Norboy SHOMURODOV,**
**xalq deputatlari Jarqo'rg'on tumani Kengashi deputati (Surxondaryo viloyati):**

— "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunga asosan xalq deputatlari Kengashiga bir qator vakolatlar yuklatilgan. Lekin mahalliy Kengashlar deputatlari bu vakolatlarni qanday bajarmoqda?

Demak, mahalliy Kengashlar deputatlari ham o'z mas'uliyatini anglab, tuman aholisini bezovta qilayotgan har qanday masalani hal etishi lozim. Shu jihatdan, bugungi sessiyada deputatlarimiz bu vakolatidan foydalana oldi, desak, mubolag'a bo'lmaydi.

Aholidan kelib tushayotgan murojaatlarni tahlil qiladigan bo'lsak, ularning aksariyatini elektr, gaz, suv ta'minoti bilan bog'liq masalalar tashkil etadi. Shundan kelib chiqib, sessiyada ushbu masalalar bo'yicha tuman hokimining hisobotini eshitdik.

Kuz-qish mavsumiga tayyorgarlik ko'rish maqsadida tumanda 136,6 km. elektr uzatish tarmoqlari, 64 dona transformator punkti mukammal ta'mirlangani aytib o'tildi.

Shu bilan birga, hokim mavjud muammolarni ham gapirib o'tdi. Respublika va viloyat darajasida hal etilishi lozim bo'lgan masalalarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, viloyat Kengashi deputatlari o'z nazoratiga oldi.

Quruvchi bo'lganim bois kelgusi sessiya yig'ilishlarida shu sohaga oid masalaning muhokama qilinishini taklif etdim.

**"Xalq so'zi".**

## Qonunchilik palatasi fraksiyalarida

# FAOL, OCHIQ VA ISHONCHLI MULOQOT — TARAQQIYOT GAROVI

*Kecha siyosiy partiyalarning Oliy Majlis Qonunchilik palatasidagi fraksiyalarining yig'ilishlari bo'lib o'tdi. Ularda dastlab Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 5 — 7-oktabr kunlari Rossiya Federatsiyasiga tashrifining ahamiyatiga e'tibor qaratilib, oxirgi yillarda ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar yuksak darajaga ko'tarilgani, barcha sohada faol, ochiq va ishonchli muloqot kuzatilayotgani qayd etildi.*

*Shuningdek, yig'ilishlarda mamlakatimiz ijtimoiy-siyosiy hayotiga daxldor muhim qonun loyihalari atroflicha muhokama qilindi.*

### Davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratik to'siqlar yanada qisqaradi

O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasi fraksiyasi a'zolari o'z elektorati manfaatlaridan kelib chiqib, iqtisodiyotning deyarli barcha tarmog'ini qamrab olgan holda, savdo-iqtisodiy va investitsiyaviy hamkorlikni yanada kengaytirish, shuningdek, davlatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik va ittifoqchilikka asoslangan yuqori darajadagi ikki tomonlama munosabatlarni saqlab qolish tarafdori ekanini qayd etdi.

— Bugungi kunda O'zbekiston — Rossiya munosabatlari yangi ufqlar sari kengaymoqda, — deydi O'zLiDeP fraksiyasi rahbari Aktam Haitov. — Prezidentimizning Rossiyaga tashrifi juda samarali bo'lib, u o'zaro ishonch, hurmat va manfaatdorlik asosidagi sheriklikka yangi sur'at baxsh etadi va istiqbolda ikki mamlakat o'rtasida aloqalarni yanada kengaytiradi. Tashrif doirasida erishilgan natijalar va ko'plab hujjatlar imzolangani shundan dalolat beradi.

Yig'ilishda "Davlat xizmatlarini ko'rsatishda byurokratik to'siqlar yanada qisqartirilishi munosabati bilan O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga o'zgartirishlar kiritish to'g'risida"gi qonun loyihasi ham ko'rib chiqildi.

Qayd etilganidek, keyingi yillarda mamlakatimizda aholi va tadbirkorlik subyektlariga davlat xizmatlari ko'rsatish tizimi bosqichma-bosqich isloh qilinib, ortiqcha byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda davlat xizmatlari ko'rsatish sifatini tubdan yaxshilash borasida kompleks chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, respublika hamda mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari va boshqa davlat tashkilotlarida eskirgan byurokratik tartibotlar, shu jumladan, elektron tizim orqali olish imkoniyati mavjud bo'lgan ma'lumotlarni qog'oz ko'rinishida hamda ish faoliyatini tashkil etish uchun muhim bo'lmagan hujjatlarni so'rash tartibotlari bekor qilindi.

Ushbu qonun loyihasining qabul qilinishi davlat xizmatlarini ko'rsatish tizimini tartibga solish, aholi va tadbirkorlik subyektlari uchun byurokratik to'siqlarni bartaraf etish hamda ularga qo'shimcha qulayliklar yaratish bo'yicha amaldagi qonunchilik hujjatlarida belgilangan normalarni ayrim qonun hujjatlari bilan birxillashtirishga xizmat qiladi.

Uzoq davom etgan savol-javob va tortishuvlardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### Normativ-huquqiy hujjatlar yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga moslashtirilmoqda

O'zbekiston "Milliy tiklanish" demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalarini so'zsiz va to'liq amalga oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, Bosh qomusimizdan kelib chiqadigan vazifalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlar dasturining 27 va 29-bandlari ijrosini ta'minlash maqsadida ishlab chiqilgan ushbu qonun loyihasi bilan O'zbekiston Konstitutsiyasi mamlakatning butun hududida oliy yuridik kuchga ega ekani, to'g'ridan-to'g'ri amal qilishi va yagona huquqiy makonning asosini tashkil etishiga oid normalar ham amaldagi qonunchilikka kiritilmoqda.

Qonun tashabbuskorlari ushbu masala yuzasidan MDH davlatlarining



qonunchiligi o'rganilgani, tahlil natijalari ushbu davlatlar konstitutsiyalarida yangi tahrirdagi O'zbekiston Konstitutsiyasining 15 va 20-moddalarida belgilangan normalar o'z aksini topganligini qayd etdilar.

Ularning aytishicha, taklif etilayotgan qonun loyihasining qabul qilinishi bilan "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtiriladi.

Muhokamalar davomida deputatlar qonun loyihasining dolzarbligi, ayni chog'da, zarurligini e'tiborga olib, uni yanada takomillashtirish bo'yicha partiya maqsad va vazifalaridan kelib chiqib, o'z fikr-mulohazalarini, takliflarini bildirdilar. Savol-javob va munozaralardan so'ng qonun loyihasi deputatlar tomonidan qo'llab-quvvatlandi.

### Saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda

O'zbekiston "Adolat" sotsial-demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi Konstitutsiyaviy qonun loyihasi ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, keyingi yillarda demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilish maqsadida parlament hamda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirish, saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi.

Taklif etilayotgan Konstitutsiyaviy qonun loyihasida saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda.

Shuningdek, yagona saylov okrugida deputatlikka nomzodlar siyosiy partiyalar tomonidan nomzodlar ro'yxati asosida taqdim etilishi nazarda tutilyapti. Partiya ro'yxatini ro'yxatga olish muddatlari va tartibotlari belgilanyapti.

Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan "O'zbekiston Respublikasining referendumi to'g'risida"gi Qonunga ham o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish taklif qilinmoqda. Xususan, referendum tashkil etish va o'tkazishda referendum okruglarini tuzish tartibi bekor qilinib, mazkur vazifa Qoraqalpog'iston Respublikasi Markaziy saylov komissiyasi, viloyatlar va Toshkent shahar hududiy saylov komissiyalari, tuman va shahar saylov komissiyalari, uchastka saylov komissiyalari tomonidan amalga oshirilishi nazarda tutilmoqda.

Mazkur Konstitutsiyaviy qonun loyihasining qabul qilinishi natijasida referendum va saylov to'g'risidagi qonunchilik yangi tahrirdagi Konstitutsiyaga muvofiqlashtiriladi, Markaziy saylov komissiyasi, hududiy, tuman va shahar saylov komissiyalarining vakolatlari aniqlashtirilib, Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etilishining huquqiy asoslari yaratiladi.

Yig'ilishda deputatlar tomonidan partiya pozitsiyasidan kelib chiqqan holda ko'tarilgan savollarga tashabbuskorlar tomonidan atroflicha javoblar olindi. Deputatlar qonun loyihasining dolzarbligini, berilgan takliflar inobatga olinganini hisobga olib, uni ma'qulladilar.

### Endi deputatlar saylovi majoritar va proporsional tizimi asosida o'tkaziladi

O'zbekiston Xalq demokratik partiyasi fraksiyasi yig'ilishida fraksiya a'zolari "O'zbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga saylov va referendum o'tkazish tartibini yanada takomillashtirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyaviy qonuni loyihasini muhokama qildilar.

Ta'kidlanganidek, Konstitutsiyaviy qonun loyihasi bilan Saylov kodeksi hamda 7 ta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish nazarda tutilmoqda. Xususan, Saylov kodeksiga Qonunchilik palatasi saylovini aralash (majoritar, proporsional) saylov tizimi asosida o'tkazish tartibini kiritish taklif etilmoqda. Shunda saylov okruglari bir mandatli va yagona saylov okruglariga ajratilmoqda. Qonunchilik palatasining 75 nafar deputati majoritar saylov tizimi asosida bir mandatli saylov okruglaridan, qolgan 75 nafari proporsional saylov tizimi asosida, ya'ni siyosiy partiyalarga berilgan ovozlar bo'yicha yagona saylov okrugidan saylanishi belgilanmoqda.

Shuningdek, Markaziy saylov komissiyasi a'zolari sonini kamida o'n besh nafardan to'qqiz nafarga tushirish, uning kamida bir nafar a'zosi Qoraqalpog'iston vakili bo'lishi aks etmoqda. Shu bilan birga, tuman, shahar saylov komissiyalarining vakolatlarini belgilovchi yangi normalar kiritilmoqda.

Deputatlar Konstitutsiyaviy qonun loyihasini muhokama qilar ekan, taklif etilayotgan o'zgartirish va qo'shimchalar, birinchi navbatda, yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizni amaliyotga to'g'ri joriy etishga xizmat qilishi va bu orqali qator qonunchilik me'yorlari muvofiqlashtirilishini ta'kidlab o'tdilar. Shuningdek, Qonunchilik palatasi deputatlari korpusini shakllantirishning majoritar-proporsional shakliga asoslangan saylov tizimi joriy etilishining huquqiy asoslari yaratilishi alohida qayd qilindi. Majoritar-proporsional shakl tizimiga o'tish davlat boshqaruvini yangilash va yanada demokratlashtirish hamda mamlakatni modernizatsiyalashda siyosiy partiyalarning rolini kuchaytirishga xizmat qiladi.

Taklif va fikr-mulohazalardan so'ng Konstitutsiyaviy qonun loyihasi fraksiya a'zolari tomonidan ma'qullandi.

### Fuqarolar va davlat organlari o'rtasidagi munosabatlar mustahkamlanadi

O'zbekiston Ekologik partiyasi fraksiyasi a'zolari tomonidan "O'zbekiston Respublikasining "Normativ-huquqiy hujjatlar to'g'risida"gi Qonuniga O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi normalarini so'zsiz va to'liq amalga oshirishga qaratilgan o'zgartirish va qo'shimcha kiritish haqida"gi qonun loyihasi ham qizg'in ko'rib chiqildi.

Ta'kidlanganidek, mamlakatimizda amalga oshirilayotgan islohotlar negizini tashkil etuvchi "Inson qadri uchun" g'oyasi hamda hozirgi islohotlarimizning bosh tamoyili bo'lgan "Inson — jamiyat — davlat" degan yondashuv yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizning mazmuniga chuqur singdirildi. Mamlakatimiz hayotida inson qadr-qimmati, sha'ni va g'ururi barcha sohada birinchi o'rinda turishi oliy darajada o'z ifodasini topdi.

Shu nuqtai nazardan, fraksiya yig'ilishida deputatlar tomonidan mazkur qonun loyihasi bilan kiritilayotgan o'zgartishlar mamlakatda qonun ustuvorligini ta'minlashga xizmat qilishi, inson va davlat organlari o'rtasidagi o'zaro munosabatlarda yuzaga keladigan qonunchilikdagi barcha ziddiyat va noaniqliklarning inson foydasiga talqin etilishi bugungi kundagi jadal islohotlar jarayonida dolzarb ahamiyatga egaligi qayd etib o'tildi. Xalq vakillari tomonidan muhokamalarda qonun loyihasini yanada takomillashtirish yuzasidan tegishli taklif va tavsiyalar berildi hamda loyiha qo'llab-quvvatlandi.

*Fraksiyalar yig'ilishlarida kun tartibiga kiritilgan boshqa masalalar ham atroflicha ko'rib chiqildi.*

**"Xalq so'zi".**

# BIRLASHTIRUVCHI KUCH



*Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirishga bel bog‘ladi. Tarixan qisqa muddat ichida O‘zbekiston rahbari Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash masalasida yetakchi islohotchi maqomiga ega bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan davlat chegaralari, transport yo‘laklari va suvdan foydalanish masalalariga bog‘liq bo‘lgan ko‘p yillik ixtiloflarni bartaraf qilish ishlari davom ettirilmoqda. Bu esa, mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilyapti. Natijada savdo hajmi sezilarli darajada oshdi, qo‘shma korxonalar soni bir necha barobarga ko‘paydi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot hamda transport aloqasi markaziga aylantirdi.*

←1

## BOSH ROLLARGA QAYTISH

Hozir 2023-yil. Davlatimiz fuqarolari Tojikistonga shaxsiy avtomashinalari yoki chegaraoldi avtobuslarida osongina borib kelishi oddiy holatga aylandi. Bunga esa ko‘p ham bo‘lgani yo‘q. Rulda o‘tirgingiz kelmayaptimi — marhamat, Dushanbega samolyotda uching. Qirg‘izistonga-chi? U yerga borish uchun endi xorijiy pasport bo‘lishi shart emas: ID kartaning o‘zi yetarli.

Mana shunday tartib doim mavjud bo‘lganday tasavvur shakllanadi. Aslida-chi? Qo‘shni davlatlar o‘rtasidagi munosabatlar ustiga “qora chiziq” tortilgan edi. Chegaradan o‘tishning oddiy tartibi o‘rniga, olish amalda qiyin bo‘lgan “viza”lar joriy etilgandi. Do‘stona yo‘laklar o‘rniga esa — minalangan hududlar... Hatto umumiy masalalar bo‘yicha muloqot o‘rnatishga harakat qilish ham juda murakkab ish edi.

Shavkat Mirziyoyev Markaziy Osiyoning siyosiy xaritasini tubdan o‘zgartirishga bel bog‘ladi. Tarixan qisqa muddat ichida O‘zbekiston rahbari Markaziy Osiyoda mintaqaviy barqarorlik va hamkorlikni mustahkamlash masalasida yetakchi islohotchi maqomiga ega bo‘ldi. Uning tashabbusi bilan davlat chegaralari, transport yo‘laklari va suvdan foydalanish masalalariga bog‘liq bo‘lgan ko‘p yillik ixtiloflarni bartaraf qilish ishlari davom ettirilmoqda. Bu esa mintaqa mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga xizmat qilyapti. Natijada savdo hajmi sezilarli darajada oshdi, qo‘shma korxonalar soni bir necha barobarga ko‘paydi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyoni Sharq va G‘arb, Shimol va Janub o‘rtasidagi iqtisodiy taraqqiyot hamda transport aloqasi markaziga aylantirdi.

Yaqinda Dushanbeda bo‘lib o‘tgan Maslahat uchrashuvida mintaqaviy “beshlik” davlatlarining rahbarlari birgalikda amalga oshirilgan ishlarni sarhisob qilishdi. To‘g‘ri, alohida mamlakatlar o‘rtasidagi munosabatlarda ayrim murakkab jihatlar hali saqlanib kelmoqda. Lekin Tojikiston poytaxtida muzokaralar stoli atrofida yig‘ilgan vakillar o‘z davlatlari va umuman, mintaqa davlatlari uchun muhim bo‘lgan masalalar bo‘yicha muloqotga, hamkorlikka tayyor ekanliklarini namoyish etishdi.

Mintaqa mamlakatlari rivojida yildan-yilga umumiy masalalar vujudga kelmoqda. Bundan tashqari respublikalarimiz strategik yo‘nalishlari o‘xshashligi, mushtarakligini namoyon qilmoqdalar. Finlyandiyadagi yirik biznes birlashmasining nufuzli nashri bo‘lgan “EastCham — Finland” qayd etilishicha, Markaziy Osiyo mamlakatlarini birlashtirib turadigan omil — iqtisodiyotni diversifikatsiyalash bo‘yicha islohotlarni ro‘yobga chiqarishga bo‘lgan intilish hamda tadbirkorlarga xayrixohlik. Bu esa ularning har birida ham, umumiy maydonda ham investitsiyaviy jozibadorligini oshiradi.

Keyingi yillarning o‘zida mintaqa mamlakatlarining o‘zaro investitsiyalari hajmi deyarli 6 baravarga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy sarmoyalar oqimi esa 45 foizga ortdi. O‘zbekiston Prezidenti Maslahat uchrashuvidagi o‘z nutqida aytib o‘tganidek, mintaqa mamlakatlarining umumiy ichki mahsuloti 40 foizga ko‘paydi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasidagi savdo aloqalari ortishi kuzatilmoqda. Tovar aylanmasi 2,5 barobardan ziyod oshdi. Bundan tashqari, ichki mintaqaviy turizm ko‘rsatkichlari deyarli 2 barobar ortdi.

Shubhasiz, iqtisodiyot Markaziy Osiyo taraqqiyotining muhim barometri bo‘lib xizmat qilmoqda. Davlatlarning muvaffaqiyatli integratsiyasiga misollar ko‘p. Deylik, o‘z vaqtida bir necha mamlakatni qudratli yagona iqtisodiy blokka birlashtirgan Yevropa Ittifoqi, shuningdek, samarali sanoat kooperatsiyasi markazlaridan biriga aylangan Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlari assotsiatsiyasi muvaffaqiyatli integratsiyaga yaqqol misol bo‘la oladi. ASEAN doirasida tashkil etilgan sanoat klasterlari ichki savdoning o‘sishiga, iqtisodiy barqarorlikka, biznes uchun to‘siqlarning pasayishiga olib keldiki, bu, o‘z navbatida, minglab ish o‘rinlarining yaratilishiga sabab bo‘ldi. Ko‘rinib turibdiki, yuqorida keltirilgan birlashmalar doirasidagi integratsiya o‘z ishtirokchilariga jahon bozorida yaxshiroq raqobat qilishga yordam bergan.

Xo‘sh, biz-chi, ulardan qayerimiz kam? Hech qayerimiz kam emas. O‘zbekiston avvallari Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Tojikiston, Turkmaniston va Ozarbayjon bilan avtomobillar, maishiy texnika, to‘qimachilik va oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha kooperatsiyani yo‘lga qo‘ygan. Yana o‘g‘itlar, polimerlar, metall buyumlar ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi texnikalarini yig‘ish, to‘qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni kengaytirish va uchinchi davlatlarga eksport qilishni ko‘zda tutmoqda. Ya’ni jarayon yo‘lga qo‘yilgan. Endi uni jadallashtirish muhim.

Yuqorida nomi keltirilgan tadqiqotchi Bela Balashshaning kitoblarida mamlakatlar o‘rtasida erkin savdo zonasini shakllantirish integratsiya jarayonlarining asosiy bosqichi sifatida ko‘rsatilgan. Ana shu o‘z ahamiyatini namoyish etgan ilmiy modelga tayangan holda, O‘zbekiston Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ham Markaziy Osiyoda to‘laqonli erkin savdo zonasini shakllantirish tashabbusi bilan chiqdi. Uning doirasida bojxona ma’murchiligi, sanitar va fitosanitar nazorati, tovarlarni sertifikatlash bo‘yicha yagona elektron platformalar yaratish ko‘zda tutilmoqda.

Bundan tashqari, O‘zbekiston yetakchisi boshqa dolzarb masalalarni ham ko‘tardi. Masalan, yuklarni tashish uchun ketadigan xarajatlar ulushi tovarlarning so‘nggi qiymatiga nisbatan 50 foizgacha yetmoqda. Dunyodagi o‘rtacha ko‘rsatkich esa 11 foizdan oshmaydi. Shu munosabat bilan davlatimiz rahbari Markaziy Osiyoda Transport va tranzit haqidagi bitimni ishlab chiqish, Xitoy, Janubiy Osiyo va Yaqin Sharq hamda Yevropa Ittifoqi mamlakatlari bozorlariga chiqish uchun samarali transport koridorlarini rivojlantirish takliflarini kiritdi.

O‘zbekiston Prezidentining shu va boshqa tashabbuslari ekspert doiralarda kuchli aks sado berdi. Masalan, Parij geosiyosat akademiyasi prezidenti Ali Rastbin fikricha, infratuzilmani takomillashtirish mamlakatlarning Markaziy Osiyo transport-kommunikatsiya bog‘liqligi bo‘yicha sa’y-harakatlarini birlashtirishga hamda mintaqaviy hamkorlikni chuqurlashtirishga xizmat qiladi.

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning tashabbuslari juda katta mintaqaviy qiziqish uyg‘otdi, — deydi “Intellekt Orda” xalqaro ijtimoiy-gumanitar tadqiqotlar integratsiyasi instituti direktori, qozog‘istonlik akademik Sattor Majidov. — O‘zbekiston davlat rahbarining Markaziy Osiyoda hamkorlikni yangicha mazmun bilan boyitish borasida kiritgan takliflari Dushanbedagi uchrashuvning asosiy leytmotivlaridan biri bo‘ldi.

Markaziy Osiyo mamlakatlari o‘rtasida muntazamlik kasb etgan siyosiy muloqotlar, parlamentlararo tajriba almashuv, hamkorlik uchun yangi platformalar keyingi yillarda o‘zining ijobiy natijalarini ko‘rsatmoqda, deb hisoblaydi ekspert. Ulardan asosiysi — Markaziy Osiyoda barqarorlik va birdamlikni mustahkamlash. Aslini olganda, mintaqa Buyuk Ipak yo‘li gullab-yashnagan davrdagi transport-logistika xabi bo‘lgan tarixiy maqomini yana o‘ziga qaytarib ola boshladi.

## MUSTAQIL SUBYEKT MAQOMIDA

Markaziy Osiyo bo‘yicha rossiyalik ekspert Arkadiy Dubnov yozning so‘nggi oyida ta’kidlagan ediki, mintaqa izchillik bilan o‘zining jahon siyosatida mustaqil subyekt sifatidagi maqomini qo‘lga kiritmoqda.

Ha, ekspert o‘z bilimi va tajribasiga tayangan holda kelgusidagi voqealar rivojini bashorat qilmasa, u ekspert emas. Oradan ikki hafta o‘tiboq, Markaziy Osiyo o‘zining boy tarixiy merosi va madaniyatlar xilmaxilligi bilan global hamjamiyat va dunyo davlatlari e’tibori markazida bo‘ldi — u ham bo‘lsa, O‘zbekiston Prezidentining “beshlik”ni integratsiya qilish bo‘yicha tashabbuslari tufayli. Deyarli 80 millionlik aholisi bo‘lgan mintaqada hamkorlik rejalarini amalga oshirish uchun taklif etilgan g‘oyalar barqaror taraqqiyot sari hamqadam bo‘lib, sa’y-harakatlarni birlashtirishni taqozo qiladi. Bundan tashqari, jahon sahnida o‘zini yagona subyekt sifatida namoyon etish Markaziy Osiyoning obro‘sini va geosiyosiy salmog‘ini sezilarli darajada oshiradi.

Ana shu omillar tufayli dunyodagi yirik davlatlar ham o‘zining mintaqa bilan munosabatlaridagi avvalgi formatini o‘zgartirdi va unga vakillikning yanada yuqori darajasi sifatida yangi formula — “5+1”ni tanlashdi. Masalan, “AQSH — Markaziy Osiyo” degan ko‘p tomonlama muloqotni olaylik. Ilgari, tashkil topganidan buyon o‘tgan sakkiz yil davomida bu formatdagi muloqot tashqi ishlar vazirliklari darajasida o‘tkazilgan bo‘lsa, endi ilk bora prezidentlar darajasida tashkil etildi.

Davlatlar rahbarlari tashqi siyosat, mintaqaviy savdoni rivojlantirish, transport va energetika aloqalari, biznes-iqlimni yaxshilash, ekologik tahdidlarga va ekstremizmga qarshi kurashish, gumanitar aloqalarni mustahkamlash kabi dolzarb masalalar bo‘yicha fikr almashdilar. Mohiyatiga ko‘ra, mazkur uchrashuv AQSH Prezidenti Jozef Baydenning beshta Markaziy Osiyo davlati rahbarlari bilan shaxsan tanishishi uchun qulay imkoniyat bo‘ldi. Unda Qo‘shma Shtatlar mintaqada xavfsizlikni ta’minlash uchun moliyaviy ko‘makni ko‘paytirishi, xususiy sektor va iqtisodiy aloqalarni mustahkamlash bo‘yicha biznes-platforma tashkil etishi, shuningdek, uzoq muddatli energetika xavfsizligini ta’minlash uchun muhim qazilma boyliklar sohasida hamkorlik qilishi haqida so‘z bordi. Jozef Bayden davlat rahbarlarining “5+1” formatidagi keyingi uchrashuvi “beshlik” mamlakatlarining birida bo‘lib o‘tishini xabar qildi. Bu esa uning mintaqaga ilk tashrifini amalga oshirish haqidagi rejasidir.

Ekspertlarning geosiyosiy bashoratlashiga ixtisoslashtirilgan nashr bo‘lmish “Geopolitic Futures” o‘z portalida xabar berishicha, AQSH o‘zining Markaziy Osiyoga munosabatini ancha o‘zgartirmoqda.

Nashrda yozilganidek, Yevroosiyoning yuragida joylashgan O‘zbekiston — bu Markaziy Osiyodagi qolgan to‘rt davlat bilan ham umumiy chegaraga ega bo‘lgan mamlakat. Nufusi 36 million bo‘lgani uchun u aholi soni bo‘yicha mintaqadagi eng yirik davlat hisoblanadi. Kelgusi yillarda aholi yanada tezroq o‘sishi kutilmoqda.

Portal tahlilchilarining fikricha, O‘zbekiston mintaqadagi diqqatni tortuvchi markaz sifatida AQSHning Markaziy Osiyodagi rolini kengaytirish uchun platforma bo‘la oladi. Shunday qilib, mamlakat samarali amerikacha strategiyaning Markaziy Osiyodagi asosiy komponenti bo‘lishi kutilmoqda.

Qisqa muddat o‘tgach, mintaqa davlatlarining rahbarlarini endi Berlinda kutib olishdi. Vujudga kelgan an’anadan chetda qolishni istamagan Germaniya “Markaziy Osiyo — Germaniya” formatidagi birinchi sammitni tashkil etdi.

“Beshlik” respublikalarining rahbarlari avval Germaniyaning Federal prezidenti Frank-Valter Shtaynmayer bilan uchrashishdi. Keyin esa, Federal kansler Olaf Shols bilan muloqot davomida tomonlar hamkorlik istiqbollarini muhokama qilishdi.

Sammit o‘tkazilgan kunlarda nemis tahlilchilari va ommaviy axborot vositalari Markaziy Osiyo davlatlari geosiyosiy nuqtai nazardan muhim ekanligi hamda

*Prezidentimiz jahondagi bosh minbardan turib O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi haqida batafsil ma’lumot berar ekan, Markaziy Osiyoda hamkorlik va barqarorlikning muhimligini yana bir bor ta’kidladi. Mintaqa iqtisodiy rivojlanish markaziga, dunyoning turli hududlarini bog‘laydigan transport-kommunikatsiya ko‘prigiga aylanib borayotganini aytib o‘tdi. O‘zbekiston bundan buyon ham Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, barqarorlik, o‘zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash yo‘lidan qat’iy borishini qayd etdi.*

dunyo mamlakatlari bilan hamkorlikni faol rivojlantirib borayotganini qayd etishdi. Bunda Germaniya avvallari mintaqa bilan faol sheriklikka jalb qilinmagani haqida afsus ham bildirildi.

“World Economy“ nashridagi maqolada qayd etilganidek, Markaziy Osiyoda aholisi eng zich bo‘lgan mamlakat — O‘zbekiston bilan Yevropadagi eng boy mamlakat — Germaniya o‘rtasidagi savdo aylanmasi hammasi bo‘lib bir necha milliard yevroni tashkil qiladi, yaqin paytgacha esa kamtargina 500 million yevroga teng edi, xolos.

— Bu hamkorlarning ulkan salohiyati ustidan hazillashishga o‘xshaydi, — deb yozadi ommaviy axborot vositasi muxbiri. — May oyida O‘zbekiston Prezidenti Berlinda bo‘ldi va shunchalik ko‘p yangilik yuz berdiki! O‘n milliard yevrodan ortiq mablag‘ga teng kelishuvlar, ikki yuzdan ortiq qo‘shma korxonalar, innovatsion energetik texnologiyalarni rivojlantirish bo‘yicha rejalar, qit’alararo yangi temir yo‘l yo‘nalishlari... Hali sayyohlik, madaniyat va ta’lim sohalaridagi hamkorlikni qo‘ya turaylik...

O‘zbekiston va Germaniyaning ikki tomonlama munosabatlari alohida rol o‘ynashi haqida “Heilbronner-Stimme” gazetasida ham yozishdi.

— Prezident Shavkat Mirziyoyevning insonparvarlik tamoyillariga asoslangan islohotlari natijasida mamlakat o‘z ichki siyosatida demokratik yo‘l tutdi, tashqi siyosatda esa ochiqlikka intildi, — deb hisoblaydi maqola muallifi Yurgen Paul. — O‘zbekistonning iqtisodiyoti jadal sur’atlar bilan o‘smoqda, ya’ni 2022-yilda 5,7 foizga ortdi. Yaqinda BMT tomonidan o‘tkazilgan, innovatsion faol mamlakatlarni aniqlash bo‘yicha tadqiqotda O‘zbekiston innovatsion salohiyat nuqtai nazaridan yaxshi rivojlangan mamlakatlar qatoriga kiritildi. Va u xalqaro savdo-iqtisodiy aloqalarini yanada kengaytirishga harakat qilmoqda.

Aytish joizki, O‘zbekiston ana shunday siyosiy, iqtisodiy, madaniy-gumanitar hamkorlikni kengaytirishga qaratilgan kursni butun Markaziy Osiyoga joriy etar ekan, uni ikki tomonlama formatda ham ro‘yobga chiqarmoqda.

Yaqinda Prezident Shavkat Mirziyoyevning Dohaga davlat tashrifi doirasida Qatar davlati Amiri shayx Tamim bin Hamad Ol Soniy bilan muzokaralar bo‘lib o‘tdi, unda ikki mamlakat hamkorligini yanada yuqori — strategik sheriklik darajasiga olib chiqish belgilandi.

Davlatimiz rahbarining shu kunlarda bo‘lib o‘tgan Moskvaga rasmiy tashrifi doirasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev va Rossiya Federatsiyasi Prezidenti Vladimir Putin muzokaralar natijasi bo‘lgan Keng ko‘lamli strategik sheriklik va ittifoqchilik munosabatlarini chuqurlashtirish to‘g‘risida qo‘shma bayonotni qabul qildilar.

“Toshkent Rossiyaning Markaziy Osiyodagi eng muhim hamkoriga aylanmoqda”, deb yozadi Yuriy Sigov “Moskovskiy komsomoles” gazetasida chop etilgan maqolasida. Unda keyingi bir necha yil ichida ikki tomonlama munosabatlar qanday rivojlangani tahlil qilingan bo‘lib, ushbu munosabatlar kelgusida ham mustahkamlanib, rivojlanib borishiga ishonch uyg‘otuvchi bir nechta muhim jihatlar keltirib o‘tilgan. Ular qatorida — O‘zbekiston tomonidan mustaqil tashqi siyosat yuritilishi, ikki tomonlama aloqalarning salohiyati, ayniqsa, iqtisodiyot, sayyohlik, ta’lim, hamkorlikning mintaqaviy va boshqa jihatlari ko‘rsatib berilgan.



Muallifning fikriga ko‘ra, aholisi bo‘yicha Markaziy Osiyoda eng yirik davlat bo‘lgan O‘zbekiston o‘zining barcha qo‘shnilari uchun birlashtiruvchi kuch vazifasini bajaradi. Shu bilan birga, o‘zining mustaqil tashqi siyosatini yuritishga sodiqligini saqlab qoladi.

## O‘ZBEKONA TREND

Prezident Shavkat Mirziyoyevning BMT Bosh Assambleyasi 78-sessiyasidagi nutqi O‘zbekistonning va butun mintaqaning global miqyosda mustahkamlanishida so‘nggi yillardagi pragmatik tashqi siyosat kursidagi muhim, o‘ziga xos voqelik, bosqich bo‘ldi.

Ko‘pgina tahlilchilar e’tirof etganidek, davlatimiz rahbari o‘z nutqi bilan nafaqat islohotchi Prezident ekanini mustahkamladi, balki o‘zi haqida global maqsadlar yo‘lidagi hamkorlik tarafdori, deb aytishlariga undadi.

Prezidentimiz jahondagi bosh minbardan turib O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasi haqida batafsil ma’lumot berar ekan, Markaziy Osiyoda hamkorlik va barqarorlikning muhimligini yana bir bor ta’kidladi. Mintaqa iqtisodiy rivojlanish markaziga, dunyoning turli hududlarini bog‘laydigan transport-kommunikatsiya ko‘prigiga aylanib borayotganini aytib o‘tdi. O‘zbekiston bundan buyon ham Markaziy Osiyoda yaxshi qo‘shnichilik, barqarorlik, o‘zaro hamkorlik va rivojlanish muhitini mustahkamlash yo‘lidan qat’iy borishini qayd etdi.

Hindistonning “The Economic Times” nashri xalqaro sharhlovchisi Dipandjan Roy Chaudxuru yozganidek, O‘zbekiston Prezidenti BMT Bosh Assambleyasidagi nutqida huquqiy, dunyoviy, demokratik va ijtimoiy davlat, inson manfaatlariga mos davlat barpo etishga sodiqligini ta’kidladi.

Bunda Prezident dunyoda keskin ekologik vaziyat kuzatilib, uchta inqiroz, ya’ni iqlim o‘zgarishi, bioxilma-xillik yo‘qolishi va atrof-muhit ifloslanishi kuchayib borayotganini, Markaziy Osiyo iqlim o‘zgarishlari oldida eng zaif mintaqalardan biriga aylanayotganini ko‘rsatib o‘tdi. Shu bois ekologiya muammolarini hal qilish uchun maxsus mexanizm va platformalarni yaratish va faoliyatini qo‘llab-quvvatlash lozimligini, buni esa hamkorlikda, muloqot asosida amalga oshirish kerakligini aytdi.

Afg‘oniston taqdiri kun tartibidan tushmasligi kerak. Prezident bu gal ham ekstremizm tarqalishiga, yoshlarning radikallashuviga yo‘l qo‘ymaslik uchun birgalikdagi harakatlarni faollashtirish masalasiga to‘xtalib o‘tdi. Ushbu mamlakatda yangi vaziyat vujudga kelgan bo‘lib, u afg‘on masalasini hal etishda o‘ziga xos yondashuvlarni talab qilmoqda. Prezidentimiz afg‘on xalqiga insonparvarlik yordami ko‘rsatishni susaytirmaslik lozim, degan fikrni bildirdi. BMTning yuksak minbaridan turib dunyo hamjamiyatini Afg‘oniston muammosini hal etish yo‘lida birlashishga va bu borada Birlashgan Millatlar Tashkiloti rahnamoligida Afg‘oniston bo‘yicha birgalikda ishlab chiqilgan, vaziyatga moslashuvchan va konstruktiv pozitsiyani belgilashga chaqirdi.

“O‘zbekiston Prezidentining BMT Bosh Assambleyasining navbatdagi sessiyasida so‘zlagan nutqi shiddatli va kuchli tashabbuslarga boy bo‘ldi, ekologik xususiyatdagi muammolarni yechishdan tortib ta’lim, gender tengligi, diniy bag‘rikenglik mavzularigacha bo‘lgan ijtimoiy masalalarni qamrab oldi, — deb qayd etdi San-Pablo universiteti qoshidagi Gumanitar tadqiqotlar instituti professori Antonio Alonso. — O‘zbekiston yetakchisining takliflari o‘z muhimligi darajasi bo‘yicha faqat mintaqaviy yoki milliy daraja bilan cheklanmaydi, balki global xususiyatga ega”.

Markaziy Osiyo tadqiqotchisi O‘zbekiston rahbarining nutqi haqida fikr bildirar ekan, “o‘zbekona trend” degan atamani ishlatdi. “Nutqning asosiy jihatlari Prezident tomonidan keyingi bir necha yilda xalqaro minbarlardan turib aytilgan tashabbuslarining mantiqiy davomi bo‘ldi. O‘zbekiston yetakchisi xalqaro hamjamiyatning e’tiborini doimo jiddiy tahdid va xatarlarga qaratadi, ularga nisbatan kechiktirib bo‘lmaydigan choralar ko‘rishga chaqiradi. Bunday yondashuv zamonaviy dunyodagi global va ustuvor vazifalar, an’analarni chuqur tushunishdan darak beradi”, dedi tadqiqotchi.

O‘zbekiston Prezidenti tashabbuslari tufayli Markaziy Osiyo faol islohotlar va hamkorlikni mustahkamlash maydoniga aylandi. Shavkat Mirziyoyevning mintaqadagi eski kelishmovchiliklarni bartaraf etishga, “beshlik” mamlakatlari o‘rtasidagi o‘zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirishga, boy madaniy merosga ega xalqlarni deyarli 80 millionlik aholisi bo‘lgan mintaqani barqaror rivojlantirish maqsadi atrofida birlashtirishga xizmat qiladi. Bu sa’y-harakatlar esa Markaziy Osiyoga geosiyosiy qudrat baxsh etib, dunyo davlatlarining e’tiborini o‘ziga qaratadi, mintaqa global miqyosda dadil harakat qilishiga imkon yaratadi.

**O‘tkir RAHMAT**

# MUZAFFAR SPORTCHILARIMIZ EL-U YURTIMIZ ARDOG‘IDA

← 1

Qizg‘in bellashuvlarda yurtimiz sharafini munosib himoya qilgan Bahodir Jalolov, Jalgasbay Berdimuratov, Ulug‘bek Rashitov, Hasanboy Do‘smatov, Abdumalik Xalakov, Diyora Keldiyorova, Taxmina Ikromova, Sevinch Rahimova, Vilana Savadyan, Evelina Atalyans, Sharifa Davronova, Safina Sa’dullayeva, Muzaffar To‘raboyev, Olga Zabelinskaya, Shohmurod Xolmurodov, Nurislom To‘xtasin o‘g‘li, Umid Esonov, Artyom Shturbabin, Hilola Ortiqboyeva, Muhsin Hisomiddinov, Zaynab Dayibekova, Pliyego Lara Mariya Paola, Xerrera Lara Luiza Fernanda, Guliston Perdebayeva, Anna Prakaten, Shehroz Hakimov, Dilshodjon Xudoyberdiyev, Davirjon Davronov, Alisher Turdiyev, Murodjon Yo‘ldoshev va boshqa sportchilarimiz yuksak iste’dod va mahorat sohibi ekanini namoyon etishdi.

Qilichbozlikning sablya yo‘nalishida Zaynab Dayibekova, Pliyego Lara Mariya Paola, Xerrera Lara Luiza Fernanda, Guliston Perdebayevadan iborat terma jamoamizning Osiyo o‘yinlari g‘olibi bo‘lishi o‘zbek sporti tarixida yangi sahifa ochdi. O‘yinki, 17 yoshli yengil atletikachimiz Sharifa Davronovaning tajribali va mahoratli raqiblarini ortda qoldirib, g‘oliblar safidan joy olgani, ayollar kurashi bo‘yicha Aktenge Keunimjayevaning Osiyo o‘yinlarida medalni qo‘lga kiritgani Yangi O‘zbekistonning dunyoda sport sohasida ham ulkan salohiyatga ega ekanini yana bir karra namoyon etdi, yoshlarimiz mardlik va jasorat bobida ulug‘ zotlarning munosib vorislari ekanini isbotladi, xalqimizning, Prezidentimizning ishonchini oqladi.



Tantanali marosimda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining maslahatchisi O. Abdurahmonov ishtirok etdi.

**“Xalq so‘zi”.**

Akmal MUHAMMADOV olgan suratlar.

# O‘G‘IL-QIZLARIMIZNING XANCHJOUDAGI MUVAFFAQIYATI “GLOBAL TIMES” NIGOHIDA

*Xitoyning kundalik ingliz tilida nashr qilinadigan yetakchi “Global Times” gazetasida “Mamlakatda olib borilayotgan sport siyosati tufayli O‘zbekiston Xanchjouda bo‘lib o‘tgan Osiyo o‘yinlarida kuchli 5 ta davlat qatoriga kirdi” sarlavhali maqola chop etildi.*

## E’tirof

“Xanchjoudagi Osiyo o‘yinlari ishtirokchilarning yorqin va ta’sirchan g‘alabalariga boy bo‘ldi, — deb yozadi nashr muxbiri. — Ular orasida O‘zbekiston terma jamoasi 22 ta oltin, 18 ta kumush va 31 ta bronza, jami 71 medalni qo‘lga kiritib, Osiyoning kuchli 5 davlati qatoridan joy oldi”.

“Global Times”da yozishlaricha, so‘nggi yillarda O‘zbekiston sportchilari — shaxmatchilar, bokschilar, dzyudochilar, og‘ir atletikachilar mamlakat nufuzini mustahkamlamoqda. Xanchjouda bo‘lib o‘tgan yozgi Osiyo o‘yinlarida tomoshabinlar boks, taekvondo, yengil atletika, qilichbozlik, eshkak eshish va boshqa sport turlari bo‘yicha o‘zbek sporti yulduzlarining yorqin ishtirokiga guvoh bo‘ldi.

“Kuzatuvchilar bu mamlakatda sport rivojining natijasi ekanini ta’kidladi. O‘zbekistonda professional sportchilar, murabbiylar, tibbiyot xodimlari va hakamlar tayyorlashning samarali tizimi yaratilgan, — deyiladi maqolada. — Mazkur maqsadlarning amalga oshirilishi sog‘lom turmush tarzini keng targ‘ib etish, har tomonlama barkamol yoshlarni tarbiyalash, jismoniy tarbiya va sportni yanada rivojlantirishga xizmat qilmoqda”.

Maqolada 2022 — 2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasida jismoniy tarbiya va sportni rivojlantirish chora-tadbirlari belgilab berilgani qayd etilgan. Unga ko‘ra 2022-yilda O‘zbekistonda sportni rivojlantirishga yo‘naltirilgan xarajatlar 2017-yildagiga nisbatan besh baravar oshgan.

Nashrda mamlakatda keyingi yillarda 118 ta yirik sport inshooti foydalanishga topshirilgani, yana 110 ta inshoot rekonstruksiya qilingani ta’kidlangan. Sport infratuzilmasi tufayli O‘zbekiston yirik xalqaro musobaqalar, jumladan, boks, taekvondo, erkin kurash, qilichbozlik va boshqa sport turlari bo‘yicha jahon va Osiyo chempionatlari o‘tkaziladigan joyga aylandi. Hozir mamlakatda 2025-yilda bo‘lib o‘tadigan yoshlar o‘rtasidagi Osiyo o‘yinlariga tayyorgarlik ko‘rilmoqda.

“O‘zbekistonda yoshlar o‘rtasida sog‘lom turmush tarzi keng targ‘ib qilinib, ommaviy sport tadbirlari o‘tkazilmoqda. O‘zbekistonlik sportchilarning nufuzli xalqaro musobaqalarda, jumladan, Xanchjoudagi Osiyo o‘yinlarida g‘alaba qozongani mamlakat yuksak sport salohiyatining namoyishidir. Xanchjouda o‘zbek atletlari erishgan natijalar O‘zbekistonni jahon jamoatchiligiga sport jadal rivojlanayotgan davlat sifatida yaqqol namoyon etdi”, deyiladi maqola xulosasida.

**“Dunyo” AA.**
Pekin

# IJTIMOIY SHERIKLIK — MUNOSIB MEHNAT GAROVI

← 1

Bu, o‘z navbatida, munosib mehnatni ta’minlashda ijtimoiy sheriklikning rolini oshiradi.

Munosib mehnat nafaqat ijtimoiy adolat tamoyillarini, balki iqtisodiyotning barqaror o‘sishi va rivojlanishini, jamiyatda manfaatlar uyg‘unligini ta’minlovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Xalqaro kasaba uyushmalari konfederatsiyasi tahlillariga ko‘ra so‘nggi 40 yil ichida jahon iqtisodiyotining hajmi to‘rt baravar ko‘paygan bir paytda global boylikning ish haqiga sarflanadigan ulushi 13 foizga kamaygan.

O‘zbekistonda ish haqini oshirib borish dinamikasiga nazar tashlasak, 2015-yilda mehnatga haq to‘lashning eng kam miqdori 130 ming 240 so‘m bo‘lganini, bu miqdor 2023-yil 1-maydan 980 ming so‘m qilib belgilangani, ya’ni shu davr mobaynida ish haqi 7,5 barobar oshirilganini ko‘rish mumkin.

Mamlakatimizda O‘zbekiston Respublikasi Hukumati, Kasaba uyushmalari Federatsiyasi va Ish beruvchilar konfederatsiyasi o‘rtasida imzolangan Bosh jamoa kelishuvi, shuningdek, tarmoq hamda hududiy jamoa kelishuvlari va jamoa shartnomalari orqali mehnatkashlarga munosib ish haqi to‘lanishini ta’minlashga qaratilgan tizimli ishlar olib borilmoqda.

Xususan, 2023 — 2025-yillar uchun imzolangan Bosh jamoa kelishuvida mazkur kelishuv amal qilishi davrida mehnatkashlarning real ish haqi va daromadlarini oshirishga, yalpi ichki mahsulot tarkibida mehnat haqi ulushini 30 foizdan kam bo‘lmagan miqdorda saqlab turishga doir choralar ko‘rish masalasi kiritilgan.

Tahlillar shuni ko‘rsatmoqdaki, joriy yil 1-aprel holatida respublika bo‘yicha 19915 ta korxona hamda tashkilotda jamoa shartnomalari asosida yagona tarif setkasida belgilangan razryadlar koeffitsiyenti ko‘tarilgan bo‘lib, shu orqali 900 mingga yaqin xodimlarning ish haqi oshirilishiga erishilgan. Bu esa jamoa-shartnomaviy munosabatlar bilan qamrab olingan jami xodimlarning salkam 20 foizini tashkil etadi.

Kasaba uyushmalari tomonidan ish haqining o‘z vaqtida to‘lanishi yuzasidan ham jamoatchilik nazorati olib borilmoqda. Joriy yilning o‘tgan davri mobaynida ish haqidan muddati o‘tgan qarzdorlikni undirish maqsadida kasaba uyushmalari organlari tomonidan ish beruvchilarga va tegishli idoralarga murojaat qilinib, xodimlarga 21 mlrd. so‘mdan ortiq o‘z vaqtida to‘lanmagan ish haqi undirib berildi.

Seminarda, shuningdek, Xalqaro mehnat konferensiyasining 111-sessiyasi yakunlari, Munosib mehnat tamoyillarini ilgari surishda Odam savdosiga va majburiy mehnatga qarshi kurashish milliy komissiyasining o‘rni, Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Mehnat va ijtimoiy masalalar qo‘mitasi nazorat-tahlil faoliyati, paxtachilikda bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik yuzasidan Kasaba uyushmalari Federatsiyasi tomonidan amalga oshirilayotgan milliy monitoring xususida ham so‘z bordi.

Paxta terimchilari uchun yaratilgan mehnat va dam olish sharoitlari hamda bolalar mehnati va majburiy mehnatga yo‘l qo‘ymaslik bo‘yicha o‘tkazilayotgan milliy monitoring jarayonlari to‘g‘risidagi videoreportajlar namoyish etildi.

Yakunda Munosib mehnat konsepsiyasiga tayanuvchi to‘rtta muhim maqsad, jumladan, bandlik va daromad olish imkoniyatlarini kengaytirish, ijtimoiy himoya tizimlarini takomillashtirish, muloqotni mustahkamlash yo‘nalishlarida ijtimoiy sheriklik asosida amalga oshirilishi lozim bo‘lgan galdagi vazifalar tahlil qilindi.

**Muhabbat O‘RMONBEKOVA,
O‘zbekiston kasaba uyushmalari Federatsiyasi
Matbuot xizmati rahbari.**

**15-oktabr — Xalqaro qishloq ayollari kuni**

# ELDA AZIZ VA MO‘TABAR

*Tong bilan birga uyg‘ongan Yulduz opa yuz-qo‘lini yuvib, tandirga olov qalashga tutindi. Farzandlari, ayniqsa, o‘g‘li Bahrom onaizor yopgan issiq nonga o‘rgangan. “O‘zimiz yetishtirgan bug‘doyniki boshqacha-da, baribir” deydi u. Hovlini qip-qizarib pishgan bo‘rsildoq nonlarning betakror isi tutgan pallada xonadon sohibasi ishga otlanib ulgurgan edi.*

Tezroq dalaga yetib bormasa bo‘lmaydi — dalada paxta terimi qizg‘in davom etayotir. Fermer xo‘jaligi a’zolariga, terimchilarga doshqozonda to‘y oshi qilib beraman, degan. Ularga mo‘ljallagan sovg‘a-salomlarini ham shiyponga yetkazish kerak.

Aslida, tadbirkor ayolning shoshmagan kuni yo‘q. Boisi ko‘p tarmoqli kattagina fermer xo‘jaligi boshqaruvi, jamoatchilik ishlari, bir tomonda qarindosh-urug‘chilik rishtalari, deganday, barchasiga ulgurish kerak.

Vaqtni to‘g‘ri taqsimlashni rahmatli otasi Sarimsoq akadan o‘rgangan. Fermerlikni ham ana shu usta dehqon izidan borib tanladi. Bunga ham yetti yildan oshdi. Chekiga Sirdaryo bo‘yidagi qarovsizlik tufayli ishdan chiqayozgan yerlar tushgan edi. Epaqaga keltirguncha qattiq ishlashga to‘g‘ri keldi. Tosh va ajriqlar erinmay terib chiqildi, mashina-mashina mahalliy o‘g‘it tashlandi.

Astoydil qilingan mehnat zoye ketmadi. Uch yil ichida paxta hosildorligi 29, g‘allaniki 50 sentnerga yetdi. Sarflangan sarmoya o‘rni to‘lib, xo‘jalik foydaga kirdi.

Bugun “Yoqubjon saxovati” fermer xo‘jaligi tasarrufida paxta hamda bug‘doy yetishtiriladigan 96 gektar ekinzor mavjud. Orada chorvachilik, asalarichilik ham qo‘shildi. Ishlovchilar soni yuz nafardan ko‘proq, asosiy qismi esa ayollar. Yulduzxon ularni o‘zi yashayotgan, shuningdek, qo‘shni mahallalardagi ishsiz xotin-qizlardan jamlagan.

Ko‘p tarmoqliga aylantirilgandan so‘ng xo‘jalikning moliyaviy imkoniyatlari yanada mustahkamlandi. Masalan, bultur 1 mlrd. 250 mln. so‘mdan ziyod daromad ko‘tarilib, 600 mln. so‘m sof foyda olindi.

“Qo‘l uzayishi xayrli ishlarga yo‘l ochadi”, deganlaridek, Shovon mahallasida xususiy bog‘cha faoliyati yo‘lga qo‘yildi. “Aqlli” deb nomlangan ushbu maktabgacha ta’lim tashkilotida bugun yuz nafar bola tarbiyalanyapti.

Darvoqe, mahalla ahli bu masalani xalq deputatlari tuman Kengashi deputati Yulduzxon Karimova zimmasiga qo‘ygandi.

— Fermer ayol barcha ishni astoydil bajaradi, — deydi “Shovon” MFY raisi Ma’murjon Imomov. — Xususan, yangi ish o‘rinlari yaratish, ijtimoiy himoyaga muhtoj oilalarga ko‘mak berish, xotin-qizlar faolligini oshirishdagi jonbozligidan g‘oyat xursandmiz. Dorixona, issiq non sexi, bolalar bog‘chasi qurib berganidan so‘ng mahallamizdagi ellikka yaqin ayollar doimiy mehnat o‘rniga ega bo‘ldi. 11-umumta’lim maktabi ta’miri, qishloq qabristonini obodonlashtirish, bir qator ehtiyojmand xonadonlar turarjoy sharoitlarini yaxshilash singari xayrli yumushlarda bosh-qosh bo‘lib turganidan ko‘pchilik mamnun.

Ayol kishi, avvalo, ona. Uning uchun farzand tarbiyasi, dilbandlarini komil inson qilib o‘stirish ham borki, bu yanada mas’uliyatli. Bor mehrini uch farzandiga baxshida etgan Yulduzxon bolalaridan ko‘ngli to‘q. To‘ng‘ichi, iqtisodchi mutaxassisligini egallagan Bahrom fermer xo‘jaligini yuritishda onasining suyangan tog‘i. Gulbahor — tijoratchi. Kenjasi Gullola oliygohni tugallash arafasida.

— Qishloq ayoli, bugun uning jamiyat hayotidagi ishtiroki shahardagi dugonalarinikidan aslo kam emas, — deydi Yulduzxon Karimova. — Turmush darajasi ham yaxshilanib boryapti. Shuning o‘zi yetarlimi? Men qishloqda istiqomat qilayotgan onaxonlar, opa-singil va dugonalarim qadrini yanada ko‘tarish, ularning mehnatga yarasha munosib madaniy hordiq chiqarishiga ustuvor e’tibor qaratish kerak, deb o‘ylayman. Bu yo‘nalishda hali qiladigan ishlarimiz yanayam ko‘p.

Oilaviy hayotning uddasidan chiqish barobarida, tadbirkorlikni o‘rniga qo‘yish, jamoatchilikning faol a’zosi bo‘lish — bularning barchasi birday mujassam bo‘lgan ayolni, ayniqsa, u qishloqda yashasa, har qancha e’zozlasa arziydi.

Namangan viloyatining To‘raqo‘rg‘on tumanidagi “Katta Qurama” mahalla fuqarolar yig‘ini hududida yashovchi fuqarolar ellik olti yoshli Yulduz Karimovaga xayrixohligi, uni e’zozlashining sababi ham shunda. Unga berilgan “Mo‘tabar ayol”, “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligi fidoyisi” ko‘krak nishonlari esa mehnatining munosib e’tirofi. Zero, ayni toifadagi insonlar ibrati bilan yurt obod, turmush farovon, millat sha’ni ulug‘dir.

**Qudratilla NAJMIDDINOV
(“Xalq so‘zi”).**

# YANGI KORXONA ISH BOSHLADI

*Buxoro viloyatining Olot hamda Qorako‘l tumanlari qishloq yo‘llarida yuk mototsikllarini ko‘plab uchratish mumkin. Mazkur avtoulov fermerlar, tomorqachilar, qo‘yingki, aholining barcha qatlami tashvishlarini yengillashtirishda qulay transport vositasiga aylangan.*

## Tadbirkorlik

Ana shunday yuk mototsikllariga ehtiyoj borligini nazarda tutgan holda, Olot tumanida yosh tadbirkor Farhod To‘ramurodov tashabbusi bilan “Buxoro Gold Star” mas’uliyati cheklangan jamiyati faoliyati yo‘lga qo‘yildi.

Loyihani ro‘yobga chiqarish uchun 15 milliard so‘m miqdorida mablag‘ sarflandi. Natijada dastlabki bosqichda 50 ta ish o‘rni yaratildi. Bu yerda yiliga uch mingta yuk mototsikli yig‘ish imkoniyati bor. Bir tonna va undan ham ko‘proq yuk tashishga mo‘ljallangan bu avtoulovlar yonilg‘ini nisbatan kam sarflaydi, narxi ham cho‘ntakbop. Bu yerda butlovchi qismlar sexini ishga tushirish taraddudi ham ko‘rilmoqda.

“Buxoro Gold Star” tumandagi Xalifa mahallasi hududida tashkil etilgan “O‘shlar sanoat va tadbirkorlik zonasi”ning qaldirg‘och korxonasiga aylandi. Mazkur zona mamlakatimiz Prezidentining 2021-yil 21-apreldagi “Yoshlar sanoat va tadbirkorlik zonalari faoliyatini tashkil etish hamda yoshlarning tadbirkorlikka oid tashabbuslarini qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosi doirasida barpo qilingan.

**Istam IBROHIMOV
(“Xalq so‘zi”).**

**OZIQ-OVQAT XAVFSIZLIGI:**

# MILLIY VA GLOBAL MUAMMOLAR



← 1

Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan islohotlarning yangi bosqichida yangi O‘zbekiston iqtisodiyotining muhim sohalaridan biri — qishloq xo‘jaligini tubdan isloh qilish, ayniqsa, oziq-ovqat xavfsizligini hamda narx-navo barqarorligini ta’minlash, ichki bozorni zarur iste’mol tovarlari bilan to‘ldirish borasida izchil sa’y-harakatlar olib borildi.

Xususan, 2018-yil 16-yanvardagi “Mamlakatning oziq-ovqat xavfsizligini yanada ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Prezident Farmoni yurtimiz bozorlarini sifatli, arzon va xavfsiz oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘ldirish, sog‘lom raqobat muhitini rivojlantirishda muhim dasturilamal bo‘ldi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev 2022-yilning 15-16-sentabr kunlari Samarqand shahrida o‘tkazilgan Shanxay hamkorlik tashkiloti Davlat rahbarlari kengashi yig‘ilishida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash masalasiga alohida e’tibor qaratdi. Xususan, tashkilotga a’zo mamlakatlar salohiyati ichki bozorlarni boshoqli ekinlar, chorvachilik va meva-sabzavot mahsulotlari, asosiy oziq-ovqat turlari hamda zarur o‘g‘itlar bilan muntazam ta’minlash imkonini berishini, shu bois oziq-ovqat xavfsizligiga erishishning umumiy tamoyillari va yondashuvlarini ishlab chiqish zarurligi, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish va qayta ishlash dasturlariga, to‘g‘ridan-to‘g‘ri o‘zaro ta’minotning muvofiqlashtirilgan sxemalarini shakllantirishga, ayni chog‘da, samarali logistika, “yashil” va ekspress-yo‘laklarni tashkil etishga jiddiy e’tibor qaratish lozimligini ta’kidladi.

Darhaqiqat, hozirgi kunda oziq-ovqat xavfsizligi masalasi har qachongidan dolzarb. Shu bois dunyo mamlakatlari qatori yurtimizda ham oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash orqali aholining qishloq xo‘jaligi mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini to‘la qondirishga katta e’tibor qaratilayotir. Mamlakatimizda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida ikki yo‘nalishda, ya’ni qishloq aholisi tomorqa maydonlarini kengaytirish hamda ekin maydonlarini ajratib berish chora-tadbirlari amalga oshirilmoqda.

Ayni chog‘da oziq-ovqat xavfsizligi masalalari bo‘yicha jahonning turli hududlarida ilmiy tadqiqot ishlarini olib borayotgan olimlar tomonidan to‘plangan tajribalardan xulosa qilib, bu borada quyidagilarga e’tibor qaratish maqsadga muvofiq:

— barcha tashkiliy-huquqiy shakllardagi tashkilotlar uchun hududiy oziq-ovqat bozorlariga kirish hamda teng raqobat muhitini ta’minlash;

— oziq-ovqat mahsulotlari xavfsizligi darajasi pasayishining oldini olish va yanada rivojlantirish choralarini izlash;

— oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash yuzasidan qo‘yilgan vazifalarning ahamiyatini tushunish va uni hal etish uchun sa’y-harakatlarni kuchaytirish;

— katta miqdordagi oziq-ovqat mahsulotlarini saqlash quvvatiga ega bo‘lgan omborlarni yanada ko‘paytirish.

Bu orqali har yili meva-sabzavot va poliz mahsulotlarining asosiy turlarini saqlab, ichki bozordagi narx-navoni barqaror ushlab turish va kuz-qish mavsumida bu mahsulotlardan aholi ehtiyojini qondirish asosiy masala hisoblanadi.

Umuman olganda, barcha davlat va xalqlar uchun sifatli oziq-ovqat ta’minoti eng muhim jihatlardan biri. Globallashuv jarayonida dunyoda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashning asosiy yo‘nalishlarini to‘g‘ri tanlash va amalda qo‘llash muammosi dolzarb va muhim masalaga aylanayotir. Shu bois ham Samarqand davlat universitetida dunyoning nomdor olimlari bilan hamkorlikda “Oziq-ovqat xavfsizligi: milliy va global muammolar” mavzuida xalqaro ilmiy anjuman an’anaviy tarzda o‘tkazib kelinyapti.

Joriy yil beshinchi marta bo‘lib o‘tadigan anjuman sohada faoliyat olib boradigan nufuzli tashkilotlar va jahonning 20 dan ortiq davlatlaridan olimlar, ekspertlar, investorlar, mutaxassislarning o‘zaro tajriba va fikr almashish hamda istiqboldagi vazifalarni belgilab olishga qaratilganligi bilan g‘oyat ahamiyatlidir.

V xalqaro ilmiy-amaliy anjumanda O‘zbekiston va jahonda oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash konsepsiyasini amalga oshirishning muhim jihatlari va muammolari, stress omillar ta’siridagi noqulay mintaqalarda tabiiy resurslardan barqaror foydalanishning ustuvor yo‘nalishlari, zamonaviy bio va agrotexnologiyalarni qo‘llashning ahamiyati kabi dolzarb masalalar muhokama etiladi. Shu bilan birga, dunyoning turli mintaqalarida oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlash maqsadida olib borilayotgan keng ko‘lamli ilmiy tadqiqot ishlari konferensiya ishtirokchilarining diqqat markazida bo‘ladi.

**Sirojiddin O‘ROQOV,
Sharof Rashidov nomidagi
Samarqand davlat
universitetining
Biokimyo instituti direktori,
professor,
Abdurashid JABBOROV,
ushbu institut professori.**

Xalq so‘zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi Kengashi
O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senati Kengashi

Bosh muharrir O‘tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro‘yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 1041. 32 669 nusxada bosildi. Hajmi — 2 taboq. Ofset usulida bosilgan. Qog‘oz bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma’lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodini telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53; e’lonlar 71-259-74-55.

ISSN 2010-8788

Tahririyatga kelgan qo‘lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begmuratov tomonidan sahifalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatli chop etilishiga “Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas’ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko‘chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir F. Bozorov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko‘chasi, 41. O‘zA yakuni — 22.52 Topshirildi — 02.10 1 2 3 4 5 6